

UO‘K: 338.48:911.3(575.1)

**SO‘X TUMANI ZIYORATGOHLARINING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI  
VA ULAR NEGIZIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI**

**Mahmudov Muhammadsodiq Muhammadqul o‘g‘li**

*Namangan davlat universiteti, Geografiya va ekologiya asoslari kafedrası mustaqil  
tadqiqotchisi*

*e-mail: mahmudovmuhammadsodiq25@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Tezisdá O‘zbekistonning eng yirik anklav hududi — Farg‘ona viloyati So‘x tumanidagi ziyoratgohlar iqtisodiy geografiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tumanning demografik ko‘rsatkichlari rasmiy statistika ma‘lumotlari asosida keltirilib, to‘rtta asosiy ziyoratgohning (Hazrati Ali, Hoji Orif, Rovon, Qulfi Zanjirkusho) hududiy joylashuvi, tashrif oqimi va infratuzilmaviy holati muallifning dala tadqiqotlari natijalariga tayangan holda baholanadi. Anklav sharoitida ziyorat turizmi klasterini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar asoslab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *So‘x tumani, anklav, ziyoratgoh, ziyorat turizmi, iqtisodiy geografiya, turistik klaster, hududiy rivojlanish.*

**Kirish (dolzarblik).** So‘x tumani Farg‘ona vodiysining janubida, Oloy tizmasi etaklarida joylashgan bo‘lib, hududi to‘liq Qirg‘iziston Respublikasining Batken viloyati bilan o‘ralgan — bu uni O‘zbekistonning eng yirik anklav hududiga aylantiradi; maydoni 220 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yanvar-iyun holatiga tumanning doimiy aholisi 84 633 kishini, shundan shahar aholisi 53 311, qishloq aholisi 31 322 kishini tashkil etgan [2]. Aholining mutlaq ko‘pchiligi etnik tojiklardan iborat.

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari davlat darajasida e‘tirof etilgan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-avgustdagi PQ-4798-son qarori bilan tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi tasdiqlangan [3]. Shu bilan birga, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida ziyorat turizmini hududlar iqtisodiyotining drayveri sifatida rivojlantirish belgilangan. Biroq So‘x tumanining diniy-madaniy meros obyektlari ilmiy adabiyotda yetarlicha o‘rganilmagan, ularning iqtisodiy salohiyati baholanmagan — bu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Y.-J. Ahn va hammualliflari «GeoJournal» jurnalida e‘lon qilingan tadqiqotda So‘x anklavida 260 nafar respondent o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma asosida turizm mahalliy aholining barqaror rivojlanish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini empirik isbotlagan [4]. Muallifning oldingi tadqiqotida So‘x anklavida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari dala materiallari asosida o‘rganilgan [1]. Biroq ziyoratgohlarning iqtisodiy-geografik tavsifi va klaster modeli alohida tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot maqsadi** — So‘x tumani ziyoratgohlarini iqtisodiy-geografik jihatdan tavsiflash va ular negizida ziyorat turizmini rivojlantirishning hududiy imkoniyatlarini asoslash.

**Tadqiqot metodlari:** qiyosiy-geografik tahlil, dala kuzatuv va ekspeditsion tadqiqot (2024–2025-yillar), rasmiy statistik ma’lumotlarni umumlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili hamda SWOT-tahlil usullari.

**Asosiy natijalar.** Dala tadqiqotlari natijasida tuman hududida to‘rtta asosiy ziyoratgoh aniqlanib, iqtisodiy-geografik jihatdan baholandi [1]:

1) Hazrati Ali ziyoratgohi — tumanning eng yirik va mashhur qadamjosi; hazrat Ali nomi bilan bog‘liq rivoyatlar Farg‘ona vodiysi aholisi orasida keng tarqalgan bo‘lib, ziyoratgoh bahor-yoz mavsumida tumandan tashqaridan ham ziyoratchilarni jalb etadi;

2) Hoji Orif qadamjosi — tasavvuf an‘analari bilan bog‘liq maskan; tog‘ yonbag‘irlari va buloqlar bilan uyg‘unlikda diniy hamda ekologik turizmni birlashtirish imkonini beradi;

3) Rovon ziyoratgohi — mahalliy ahamiyatga ega qadamjo bo‘lib, asosan yaqin mahallalar aholisiga xizmat qiladi;

4) Qulfi Zanjirkusho ziyoratgohi — nomi bilan bog‘liq o‘ziga xos rivoyatlarga ega noyob etnografik obyekt.

Tahlil ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qiluvchi uchta yangi institutsional-infratuzilmaviy omilni ko‘rsatdi: birinchidan, 2021-yilda Rishton–So‘x avtomobil yo‘lining qayta ochilishi tumanning ona hudud bilan transport bog‘liqligini tikladi; ikkinchidan, 2023-yil 1-sentabrdan O‘zbekiston–Qirg‘iziston davlat chegarasidan ID-karta orqali o‘tish tartibining joriy etilishi tashrif qulayligini sezilarli oshirdi; uchinchidan, PQ-4798-son qaror doirasida tuman infratuzilmasiga yo‘naltirilgan davlat investitsiyalari [3] turistik xizmatlar bazasini kengaytirish uchun zamin yaratdi.

Ayni paytda SWOT-tahlil quyidagi cheklovlarni aniqladi: ziyoratgohlar atrofida joylashtirish vositalari va sanitariya infratuzilmasining yo‘qligi; rasmiy turistik marshrut va marketingning shakllanmaganligi; turizm sohasida malakali kadrlar tanqisligi; chegara rejimiga bog‘liq geosiyosiy noaniqlik omili [1; 4]. Muallifning xulosasiga ko‘ra, anklav hududlarda ziyorat turizmining asosiy muammosi resurslar yetishmasligi emas, balki mavjud resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarining shakllanmaganligidir.

**Taklif.** Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-F-son farmoyishi bilan muqaddas qadamjolarni «Vaqf» xayriya jamoat fondiga birliktirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan [5]. Ushbu institutsional mexanizmdan foydalangan holda So‘x tumanida «Hazrati Ali» yadro obyekti atrofida yagona ziyorat-turistik klaster tashkil etish taklif etiladi. Klaster tarkibiga: (a) to‘rtta ziyoratgohni bog‘lovchi halqasimon marshrut; (b) mahalliy aholi tomorqalari negizida oilaviy mehmon uylari tarmog‘i; (c) tojik milliy hunarmandchiligi va taomlarini brendlash; (d) Batken viloyati bilan transchegaraviy turistik oqimni yo‘lga qo‘yish kiradi. Bunday model Navoiy viloyatining Sentob va Langar «turizm qishloqlari» tajribasi [6] asosida moslashtirilishi mumkin.

**Xulosa.** So‘x tumani ziyoratgohlari nafaqat diniy-ma’naviy, balki muhim iqtisodiy-geografik resurs hisoblanadi. 84,6 ming kishilik aholiga va cheklangan yer resurslariga ega

5-Iyul, 2026-yil

anklav sharoitida ziyorat turizmi klasteri iqtisodiy izolyatsiyani yumshatish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishning istiqbolli yo‘nalishi sanaladi. Kelgusi tadqiqotlarda ziyoratchilar oqimini miqdoriy monitoring qilish va klaster modelining iqtisodiy samaradorligini hisoblash lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Maxmudov M.M. Anklav hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari (So‘x tumani misolida) // NamDU ilmiy axborotnomasi. — Namangan: NamDU, 2025.
2. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. So‘x tumani demografiyasi raqamlarda (2024-yil yanvar-iyun holatiga). URL: <https://www.farstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14947>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-avgustdagi PQ-4798-son «2020–2021-yillarda Farg‘ona viloyatining So‘x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // Lex.uz.
4. Ahn Y.-J., Toshpulatov A., Jumakhanov Sh., Koriyev M., Juraev Z. Tourism and agricultural self-sufficiency as sustainable development priorities: the case of Sokh exclave // GeoJournal. — 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-F-son farmoyishi (muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarni «Vaqf» xayriya jamoat fondiga biriktirish to‘g‘risida) // Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi PQ-430-son qarori (Sentob, Chuya, Langar va Angidon qishloqlarini turizm qishloqlari sifatida rivojlantirish qismi) // Lex.uz.